


BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

1/2023

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

1/2023

Ismatullayeva I.I.	Hozirgi zamon tilshunosligida konseptni o'rganish metodlari, usullari va klassifikatsiyasi	135
Mehmonova Y. Ch.	Typology of collocations in combinatorial linguistics	139
Nuniyazova Sh. U., Djumabaeva J.Sh.	Comparative analysis in translation of English idioms and set expressions into Uzbek and Russian	144
Rajabov E.E.	O'zbek va ingliz tillaridagi "oila" tushunchasi konseptual maydonining lingvokognitiv tahlili	148
Ruziyeva N. X.	Zamonaviy tilshunoslikda matn va diskurs talqini	153
Xodjayeva D.I., Safarova M.H.	Ingliz tilini o'qitishda fonetik interferensiyaning o'rni	157
Samandarova G.Y.	Sodda gap ko'rinishidagi "hasharot" lug'aviy ma'no guruhlari asosida shakllangan paremlarning o'ziga xos xususiyatlari	161
Sayfullayev B.N.	Noqardosh tillarda o'zlashtirmalik (o'zbek va fransuz tillari misolida)	165
To'yboyeva Sh.R.	Fransuz tilida sodda gap tarkibiy qismlarini tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar yechimi	170
Абдурахманова М.У.	"Кўрлик" касаллигининг ўзбек, рус, инглиз тилларидаги лингвистик-семантик тадқиқи	174
Ахмедова М.Х.	Ўқув жараёнига тааллуқли ноадабий сўзларнинг психолингвистик хусусиятлари	180
Бахидова Ф.С.	Дискурса диний туризм ва зиёрат туризми терминларининг воқеланиши	183
Avezov S.S.	A Corpus-based approach to phraseology research	189
Kobilova A.B.	Ingliz va o'zbek tibbiy perifrazarlarining semantik mikromaydonidagi lingvokulturologik xosliklari	194
Bobokalonov R.R., Narzulaeva D.B.	Vocabulary of the Qur'an in the object of theolinguistics	203
Nazarova G.P.	Muloqotda gender farq muammolari xususida	210
Raxmatov A.P.	Plusquamperfekt zamon shaklining grammatik ma'nolari va uning kontekstual tahlili (nemis tili misolida)	215
Sayidova G.Y.	Alisher Navoiy nazmiy asarlaridagi o'xshatishlarning leksik-grammatik tabiati	221
Rasulov Z.I., Yuldasheva F.E.	Xushmuomalalikning nutq odobida ifodalanishi	232
Бозоров З.А.	Речевая культура в качестве неотъемлемой части языковой культуры личности	240
Мавлонова М.Д.	Инглизча ахборот технологиялари терминларининг ўзбек тилига ўзлаштириш жараёнида маъно торайиши ва кенгайиши ходисалари	245
Шарипова А.А.	Луғат корпусини яратиш технологияси	251
Hayotova D.Z.	Tushuncha va so'z munosabati	255
Mamatova D.M.	Xitoy tilida ta'm bildiruvchi sifatlar tahlili	259
Сафаров Ф.С.	Маънодошлик каторидаги сўзлар орасидаги маъновий муносабат ҳақида	266
Akhmedova D.B.	Semantic comments in an explanatory dictionary and their processing as a semantic extension	272
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Темирова Дж. Х.	Отражение национальной картины мира в русском и узбекском детском фольклоре	277
Насруллаев Э.Ж.	Алишер Навоий "Ҳикмат ва ибрат достони"нинг ғоявий таҳлили	284
Шарипова Л.Ф.,	Шекспир ва Рауф Парфи сонетларида бадиий тасвир	288

**NOQARDOSH TILLARDA O‘ZLASHTIRMALIK
(o‘zbek va fransuz tillari misolida)**

Sayfullayev Baxshillo Nematulloyevich,

Buxoro davlat universiteti

Fransuz filologiyasi kafedrası o‘qituvchisi

b.n.sayfullayev@buxdu.uz

Annotatsiya: Maqola kommunikativ maqsad kategoriyasining muhim yo‘nalishlaridan biri o‘zga nutq va uning ikkinchi turi bo‘lmish o‘zlashtirma gapning fransuz va o‘zbek tillaridagi ifoda usullariga bag‘ishlangan. Unda asosiy diqqat, e‘tibor o‘zlashtirmalikning noqardosh tillarda yasallish usullari, mazmunan bo‘linadigan turlari va gapdagi grammatik belgilariga qaratilgan. Shu bilan birga fransuz va o‘zbek tillarida o‘zlashtirma nutqning matndagi funksional-semantik xususiyatlariga izoh berilgan. O‘zlashtirmalik sintaktik va morfologik yo‘l bilan hosil bo‘ladi. Morfologik yo‘l bilan hosil bo‘ladigan o‘zlashtirmalik qiyoslanayotgan tillardan faqat o‘zbek tiliga xos. Fransuz tilida o‘zbek tilidan farqli ravishda o‘zlashtirmalik faqat sintaktik yo‘l bilan hosil bo‘ladi. O‘zbek tilida sintaktik yo‘l bilan hosil bo‘ladigan o‘zlashtirma gap shaklan sodda, mazmunan murakkab gap bo‘ladi. Fransuz tilida esa bunday gaplar to‘ldiruvchi ergash gap orqali ifodalanadi. Bunda bosh va ergash gap kesimlari zamon jihatidan moslashadi. O‘zlashtirma gap darak, buyruq va so‘roq shaklda bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: o‘zga nutq, o‘zlashtirma nutq, matn, muallif nutqi, morfologik vosita, sintaktik usul, o‘zlashtirma xabar, o‘zlashtirma buyruq, o‘zlashtirma so‘roq, bosh gap, ergash gap, leksik birlik, shaxs va zamon moslashuvi.

Аннотация: Статья посвящена одному из важных направлений категории коммуникативной цели - чужой речи и её второму типу, т.е. косвенной речи во французском и узбекском языках. В ней основное внимание сосредоточено на способах косвенной речи в неродственных языках, которые делятся по содержанию грамматических знаков в предложении. При этом объясняются функционально-семантические особенности косвенной речи в тексте на французском и узбекском языках. Косвенность формируется синтаксическим и морфологическим путём. Морфологическая косвенность характерна для узбекского языка среди сравниваемых языков. Во французском языке, в отличие от узбекского, косвенность формируется только синтаксически. В узбекском языке синтаксическая косвенность имеет грамматическую форму простого предложения, а по содержанию - сложного. Во французском языке такие предложения выражаются придаточным предложением. В этом случае предложения главного и придаточного совпадают по времени. Косвенные предложения бывают в изъявительной, повелительной и вопросительной формах.

Ключевые слова: чужая речь, косвенная речь, текст, авторская речь, морфологический приём, синтаксический приём, повествовательная косвенная речь, повелительная косвенная речь, вопросительная косвенная речь, главное предложное, придаточное предложение, лексическая единица, лицо и согласование времён.

Abstract: The article is devoted to one of the important directions of the category of communicative purpose - someone else's speech and its second type, i.e. indirect speech in French and Uzbek. It focuses on the ways of indirect speech in unrelated languages, which are divided according to the content and grammatical signs in the sentence. At the same time, the functional and semantic features of indirect speech in the text in French and Uzbek are explained. Indirectness is formed in a syntactic and morphological way. Morphological indirectness is characteristic of the Uzbek language among the compared languages. In French, unlike Uzbek, indirectness is formed only syntactically. In the Uzbek language, syntactic indirectness has the grammatical form of a simple sentence, but complex in content. In French, such sentences are expressed by a subordinate clause. In this case, the sentences of the main and subordinate clauses coincide in time. Indirect sentences come in indicative, imperative and interrogative forms.

Keywords: someone else's speech, indirect speech, text, author's speech, morphological device, syntactic device, narrative indirect speech, imperative indirect speech, interrogative indirect speech, main prepositional, subordinate clause, lexical unit, person and tenses.

Kirish. O'zga nutq hodisasi zamonaviy tilshunoslikda kommunikativ maqsad kategoriyasining muhim yo'nalishlaridan biridir. So'zlovchi hamma vaqt ham o'z fikrinigina bayon etibgina qolmay, ba'zan u o'zganing gapini ham o'z nutqi ichida ishlatadi. Shu asosda qo'shma gapning yana bir maxsus turi hosil bo'ladi.

Asosiy qism. O'zganing gapini ifoda etuvchi shaxs-muallif, uning nutqi esa muallif gapi deyiladi. Muallifning ma'lum shaxs fikrini o'z nutqi ichida keltirishi o'zganing gapi, gapi ifoda qilinayotgan shaxs so'zlovchi (o'zga) sanaladi. O'zga nutq ifodasida so'zlovchi borliq haqida o'z fikrini emas, o'zgalarning fikri yoki suhbatini bayon qiladi. O'zga nutqning ifodalanishi turli uslubda turlicha bo'lib har biri o'ziga xos grammatik me'yorga ega. Qiyoslanadigan tillarda o'zga nutq ifodalanishining uch turi mavjud. Bular:

- 1) **ko'chirma nutq**(*le discours direct*);
- 2) **o'zlashtirma nutq**(*le discours indirect*);
- 3) **o'ziniki bo'lmagan ko'chirma nutq**(*le discours indirect libre*).

Ko'chirma nutqda o'zganing nutqi shakl va mazmun jihatdan o'zgartirilmay tinglovchiga yetkaziladi. So'zlovchining nutqini so'zma-so'z berishning zarurati bo'lmagan paytda o'zlashtirma gap qo'llaniladi. Ba'zan o'zganing gapi ko'chirma gap bilan o'zlashtirma gap oralig'ida bo'ladi. Bunda o'zganing fikri muallif gapisiz-so'zlovchining ishtirokisiz bayon qilinadi, ya'ni muallif ko'chirma gapdagi so'zlovchi vazifasini bajaradi. Shuning uchun bunday gaplar o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap hisoblanadi [11, 294]. O'zga nutqning bu turi faqat badiiy adabiyotga xos bo'lib, muallif matniga qo'shilgan holda asar qahramonlari fikr va tuyg'usini ifodalaydi, ularning ichki dunyosini ochib berishga xizmat qiladi.

O'zga nutq ifodalanishining ikkinchi muhim usuli *o'zlashtirma nutq*da ko'chirma xabardan farqli o'laroq nutqning sintaktik tuzilishi tubdan o'zgaradi. Uning o'ziga xos bir nechta grammatik belgisi bor:

- 1) o'zbek tilida sintaktik yo'l bilan hosil bo'ladigan o'zlashtirma gap shaklan sodda va mazmunan murakkab gap bo'lsa, fransuz tilida bunday gaplar to'ldiruvchi ergash gap shaklida bo'ladi;
- 2) fransuz tilida ergashtiruvchi bog'lovchi (que, si, de..) qo'llanadi;
- 3) shaxs shakli o'zgaradi (odatda III shaxs).

O'zlashtirmalik sintaktik va morfologik yo'l bilan hosil bo'ladi. Morfologik yo'l bilan hosil bo'ladigan o'zlashtirmalik qiyoslanayotgan tillardan faqat o'zbek adabiy tiliga xos, fransuz tilida esa o'zlashtirmalikning faqat birinchi, ya'ni sintaktik yo'l bilan hosil bo'ladigan turi mavjud.

O'zlashgan gap nutqda ko'p ishlatiladi. Chunki o'zga gapning bu turi katta jumalarni qisqartirib aytishga qulaylik tug'diradi. Natijada ko'chirma gap ikkinchi marta muallif tomonidan o'zlashtiriladi, muallif birinchi marta ko'chirma gapni gapiga yedirib, o'z uslubida qayta ishlab chiqadi. Bu o'zgarish natijasida ko'chirma gap tarkibida kishilik olmoshi bo'lmaydi, fe'lining shaxs, son kategoriyalari ko'rsatilmaydi, butun gap muallif nomidan III shaxs orqali ifodalanadi [10, 501–502].

O'zlashtirma gapda o'zganing fikri yoki gapi shaklan o'zgarib, mazmunan saqlangani holda hikoya qilib beriladi. O'zga nutqning bu turi ko'chirma gap va muallif gapining aralashtirilib, yoyiq to'ldiruvchili sodda gapga aylangan shaklidir. O'zlashtirma gapda muallif gapidagi ega, kesim munosabati saqlansa ham ko'chirma gap birikmali to'ldiruvchiga aylanib ko'chirma gapli qo'shma gap sodda gap shakliga keltiriladi [10, 461].

O'zbek tilida o'zlashtirmalik ikki usul bilan ifoda etiladi: biri sintaktik, biri morfologik. Sintaktik yo'l bilan hosil bo'luvchi o'zlashtirmalikning eng kichik ko'rinishi ikkita o'zak, negizga qo'shimcha yoki yordamchi so'z qo'shish bilan yasaladi. Uning bir necha andozasi bor, barchasi ikki qismdan iborat bo'ladi. Shulardan biri (o'zlashtirma xabar)ning birinchi qismi to'rt yoki besh uzvdan, ikkinchi qismi ikki uzvdan tuziladi. Ikkinchi qism vazifasida qo'llanuvchi so'zning soni cheklangan, birinchi qismda esa morfologik vosita soni chegaralangan. Jumladan kelishik qo'shimchasidan faqat bittasi yoki u bilan vazifadosh bo'lgan ko'makchi ishlatiladi: *Ol + gan + i+ni ayt + di. Ol + ish + i+ni ayt+di. Ol + moqchi + lig + i +ni ayt+di. Ol+gan+i haqida gapir+di* va hokazo.

O'zbek tilida morfologik yo'l bilan hosil bo'ladigan o'zlashtirmalik mazmunan uch xil ko'rinishga ega: 1) o'zlashtirma buyruq, 2) o'zlashtirma xabar (istak va hokazo), 3) o'zlashtirma so'roq. Shundan kelib chiqib o'zlashtirmalikni gapning kommunikativ maqsad kategoriyasi a'zosi deyish mumkin. Gapning kommunikativ maqsad kategoriyasiga tilshunolar N. Mahmudov va A. Nurmonov shunday izoh beradi: "Gapning kommunikativ kategoriyasi gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini ham o'z ichiga oladi. Gaplar kommunikativ maqsadiga ko'ra nutqiy aloqa turiga asoslanadi. Nutqiy jarayonda so'zlovchi ma'lum axborotni yoki istak-xohishini tinglovchiga bayon qilishni, ma'lum voqea, hodisa haqida tinglovchidan so'rashni, suhbatdoshini ma'lum axborotni bayon qilishga yoki ma'lum harakatni yuzaga chiqarishga da'vat qilishni maqsad qiladi. So'zlovchi o'zining maqsadiga muvofiq keladigan gap shakllarini tanlaydi. Shunga muvofiq, gaplar ifoda maqsadiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: 1) darak gaplar, 2) so'roq gaplar, 3) buyruq gaplar, 4) istak gaplar" [5, 26, 38].

O'zbek tilida o'zlashtirma xabar (istak va hokazo), o'lashtirma buyruq, o'zlashtirma so'roq ma'nolarni ifodalashda quyidagi vositalar qo'llanadi: *-(i)bdi, -adi (-ydi), -gan, -gan ekan, -gan emish, -(a)r ekan, -(a)r emish, -(a)yotgan ekan, -(a)yotgan emish, -adigan (-ydigan) ekan, -adigan (-ydigan) emish, -moqchi ekan, -moqchi emish, -sin ekan, -sin emish* shakllari hamda *ot va boshqa so'z turkumlari + ekan, emish to'liqsiz fe'li* va b:

O'g'lim aytdi, do'stlari bilan gaplashibdi.

Dadam aytdilar, darsingni qilar ekansan.

O'qituvchi so'rayapti, talabalar tadbirga kelar ekanmi?

Bu vositalar o'zlashtirma buyruq, o'zlashtirma xabar va o'zlashtirma so'roqni gap va mikromatnda ifodalaydi.

Fransuz tilida o'zbek tilidan farqli o'laroq o'zlashtirmalik faqat sintaktik yo'l bilan amalga oshiriladi. Sintaksis nuqtayi nazaridan o'zlashtirma gap to'ldiruvchi ergash gapga mos kelib bunday qo'shma gapda zamonlar moslashadi. O'zlashtirma gap darak, buyruq va so'roq formalarda bo'ladi [4, 227, 228].

O'zlashtirma nutq o'zga nutqni uzatishning yana bir usulidir. Bunda u muallif nutqiga grammatik jihatdan moslashadi. Aytilgan gap odatda muallif gapi tarkibidagi nutq fe'li (*masalan, dire-aytmoq, s'écrier-hayqirmoq, demander-so'ramoq, exiger-talab qilmoq va hokazo*) ning tobe bo'lagi sifatida shakllanadi va ergashgan qo'shma gap hosil bo'ladi. Bunda muallif nutqi bosh gap funksiyasini bajarsa, aytilgan gap ergash gap vazifasida keladi va ular *que* bog'lovchisi va *si, de* hamda bog'lovchi vazifasida keladigan boshqa leksik birliklar bilan bog'lanadi.

Fransuz tilida bog'lovchi tanlash, zamon va shaxs moslashuvlari o'zlashtirma nutqning muhim jihatlaridan biridir.

O'zlashtirma nutqda aytilgan gap turiga qarab turli xil bog'lovchi vazifasidagi leksik birliklar (*que, si, de*) qo'llaniladi:

a) darak va undov gaplar o'zlashtirma gap sifatida berilganda "*que*" (**a, e, i, o, u, y** va **h** harflar bilan boshlangan so'zlardan oldin **qu'**) bog'lovchisi qo'llaniladi:

Le journaliste dit qu'il y a une manifestation contre la réforme.

b) fransuz tilida buyruq gap ikki xil usulda o'zlashtirma gapga aylantiriladi. Biri sodda gap tarzida kelib unda aytilgan gapning o'zlashtirilgan buyruq qismi asosiy feldan "*de*" + *infinitif* ko'rinishida voqelanadi, ikkinchisi esa xohish-istak (*subjonctif*) mayli qo'llanilgan to'ldiruvchi ergash gap ko'rinishini oladi.

Il m'a dit de faire ce rapport-là.

Il m'a dit que je fasse ce rapport-là.

v) so'roq so'zsiz va **est-ce que** iborasi bilan yasalgan so'roq gaplar o'zlashtirilganda **si/s'** (**il** yoki **ils** dan oldin) bog'lovchisidan foydalaniladi:

Il demande si tu aimes Bruxelles.

Le journaliste demande s'il y a une manifestation contre la réforme.

g) so'roq so'zli so'roq gaplar o'zlashtirilganda so'roq so'z bog'lovchi vazifasida qo'llaniladi:

Le journaliste demande où/quand/pourquoi il y a une manifestation contre la réforme.

d) ba'zi holatda ayrim so'roq so'zli so'roq gap o'zlashtirib bayon qilinganda maxsus so'roq so'z xuddi shu ma'noli bog'lovchiga o'zgaradi:

Qu'est-ce que/que => Ce que

Il m'a demandé ce que je faisais.

Qu'est-ce qui=> Ce qui

Il m'a demandé ce qui me faisait plaisir.

Qui est-ce qui / qui=> qui

Il m'a demandé qui était volontaire.

Qui est-ce que=>qui

Il m'a demandé qui j'avais rencontré.

A qui est-ce que=>à qui

Il m'a demandé à qui je pensais.

De qui est-ce que=>de qui

Il m'a demandé de qui je parlais.

Avec qui est-ce que=>avec qui

Il m'a demandé avec qui je partais en vacances.

O'zlashtirma nutqda zamonlar moslashuvi ham muhim rol o'ynaydi. Bunda bosh va ergash gap kesimlari zamon jihatidan o'zaro moslashadi:

a) fransuz tilida bosh gap kesimi hozirgi zamon (*présent*) yoki kelasi zamon (*futur*)da bo'lsa, ergash gapda zamon o'zgarishsiz qoladi:

Présent=> présent

Il déclare qu'il va partir demain.

b) bosh gap kesimi o'tgan zamon (*passé*)da kelsa, ergash gapda zamon quyidagicha o'zgaradi:

Présent=>Imparfait

Il m'a dit qu'il allait bien.

Passé composé/ Passé simple=>Plus-que-parfait

Il m'a dit qu'il avait tout vendu.

Futur simple=>conditionnel présent

Il m'a dit qu'il téléphonerait.

Future antérieur=>Conditionnel passé

Il m'a dit qu'ils auraient terminé la chambre avant de venir.

Ko'chirma gap o'zlashtirma gapga aylantirilganda zamon bilan birga payt ravishlari ham o'zaro moslashadi. Bu hol ayniqsa hikoya janrida ko'p uchraydi:

Aujourd'hui =>Ce jour-là

Lucie pensait qu'elle allait faire les courses ce jour-là.

Hier =>La veille

Le commerçant lui a dit qu'il avait été livré la veille.

Demain =>Le lendemain

Mais il a ajouté que sa commande n'arriverait que le lendemain.

(jour) prochain =>Le (jour) suivant

Il a terminé en lui disant qu'il espérait qu'elle n'arriverait pas que le mardi suivant.

Fransuz tilidagi payt ravishlarining o'zlashtirma nutqdagi bu o'zgarishlari o'zbek tiliga xos emas.

Fransuz tilida o'zlashtirma nutqda zamon, payt ravishlari bilan bir qatorda shaxs moslashuvi ham mavjud bo'lib, quyidagicha tavsiflanadi:

Je=>il,elle: *Il m'a dit qu'il/elle était là.*

Tu=>je: *Il m'a dit que je viendrais aussi.*

Vous=>nous: *Il m'a dit que nous viendrions.*

Nous=>ils: *Il m'a dit qu'ils seraient là.*

Votre=>notre/mon: *Il m'a dit qu'il n'avait plus mon livre.*

Vos=>nos/mes: *Il m'a dit qu'il n'avait plus nos/mes livres.*

Ma=>sa: *Il m'a dit qu'il était dans sa voiture.*

Ton=>mon: *Il m'a dit qu'il réglerait mon problème.*

A toi=>le mien: *Il m'a dit que ce pull était le mien.*

A moi=>à lui: *Il m'a dit que ce chat n'était pas à lui.*

Ce=>ce..là

Il m'a dit qu'il allait régler ce problème-là.

Il m'a dit qu'il n'avait plus ce livre-là.

Cet=>cet... là: *Il m'a dit que cet enfant-là était sage.*

Xulosa. O'zlashtirmalik sintaktik va morfologik yo'l bilan hosil bo'ladi. O'zbek tilida o'zlashtirmalik ikkala usul bilan ifoda etiladi. Sintaktik yo'l bilan hosil bo'luvchi o'zlashtirmalikning eng kichik ko'rinishi ikkita o'zak, negizga qo'shimcha yoki yordamchi so'z qo'shish bilan yasaladi. O'zbek tilida morfologik yo'l bilan hosil bo'ladigan o'zlashtirmalik mazmunan uch xil ko'rinishga ega: 1) o'zlashtirma buyruq, 2) o'zlashtirma xabar (istak va hokazo), 3) o'zlashtirma so'roq.

Fransuz tilida esa o'zlashtirmalik hodisasi sintaktik yo'l bilan amalga oshiriladi. Sintaksis nuqtayi nazaridan o'zlashtirma gap to'ldiruvchi ergash gapga mos kelib, muallif nutqiga grammatik jihatdan moslashadi. Aytilgan gap odatda muallif gapi tarkibidagi nutq fe'li (masalan, dire-aytmoq, s'écrier-hayqirmoq, demander-so'ramoq, exiger-talab qilmoq va hokazo) ning tobe bo'lagi sifatida shakllanadi va ergashgan qo'shma gap hosil bo'ladi. Bunda muallif nutqi bosh gap funksiyasini bajarsa, aytilgan gap ergash gap vazifasida keladi va ular *que* bog'lovchisi va *si*, *de* hamda bog'lovchi vazifasida keladigan boshqa leksik birliklar bilan bog'lanadi. Fransuz tilida bog'lovchi tanlash, zamon va shaxs moslashuvlari o'zlashtirma nutqning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

1. Hervé-D. Béchade. *Syntaxe du français moderne et contemporain (Fondamental)* . –Paris: France, 1993. –338.
2. Jumayev E. -(a) p экан шакли ва ўзлаштирма буйруқ //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
3. Jumayev E. O'zbek adabiy tilida so'roq gap va o'zlashtirmalik //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.
4. Маллина Л. Е., Андрейчикова Л. П., Турниёзов Ў. *Француз тили грамматикаси (Морфология, синтаксис)*. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 280 б.
5. Маҳмудов Н., Нурмонов А. *Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис*. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 232 б.
6. Nematulloevich S. B. Translation skills in french-uzbek literature relations (on the example of the uzbek translation of albert camus's" plague") //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2022. – Т. 18.
7. Рўзиев Я. Б. Ўзбек тилишунослигида кўчирма ва ўзлаштирма нутқнинг талқину тавсифи //Scientific reports of bukhara state university. – 2022. – С. 68.
8. Ruziev Y. Ўзбек тилида биринчи тур ўзлаштирмалик ва gap //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.
9. Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ж. *Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик*. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 391 б.
10. O'zbek tili grammatikasi. II tom. Sintaksis. – Toshkent: Fan, 1976. – 560 b.
11. Ғуломов А.Ғ., Асқарова М.А. *Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис*. Тошкент: Ўқитувчи, 1965. – 315 б.